


FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

* tezkor ma'lumot

(2019 - yil yanvar-noyabr)

2019-yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 1 294,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8% ga kopaydi. Shu jumladan, eksport hajmi 531,4 mln. AQSh dollarga (16,1 % ga o'sdi) va import hajmi 763,2 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 98,0 % ga) yetdi. Tashqi savdo saldosi -231,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.


*Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018-2019 yillarda tovar va xizmatlarning
eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**
(mln. AQSh dollari)

**yanvar-noyabr
2018 yil.**



**yanvar-noyabr
2019 yil**



2019-yil yanvar-noyabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning noyabr oyida ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Xitoy	367,8	96,4	271,4	28,4
Rossiya Federatsiyasi	260	121,3	138,7	20,1
Qozog‘iston	148,3	46,4	101,9	11,5
Qirg‘iziston	141,5	105,9	35,6	10,9
Turkiya	92,2	54,3	37,9	7,1
Tojikiston	35,2	14,1	21,1	2,7
Germaniya	23,6	0,8	22,8	1,8
Koreya Respublikasi	29,6	4,8	24,8	2,3
Polsha	21,8	15,9	5,9	1,7
Latviya	16,1	1,2	14,9	1,2
Ukraina	11,6	7,3	4,3	0,9
Misr	11,7	11,2	0,5	0,9
Litva	10	0,5	9,5	0,8
Yaponiya	16,3	0,4	15,9	1,3
Bangladesh	10,6	10,6		0,8
Afg`oniston	13,9	13,9		1,1
Belgiya	0,8	0,3	0,5	0,1
Italiya	5,5	5,3	0,2	0,4
Turkmaniston	5	0,7	4,3	0,4
Eron	7,9	0,8	7,1	0,6
Belarusiya	5,4	1,6	3,8	0,4
Vietnam	4,6	1,8	2,8	0,4
Xindiston	3,3	0,2	3,1	0,3



Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,1 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo

aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,6 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yil shu davrga nisbatan 123,3 % oshgan bo'lsa, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 52,8 ga yetdi.

EKSPORT.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida eksport hajmi 531,4 mln. AQSh dollarga (2018 - yilning shu davriga nisbatan 16,1 % ga o'sdi) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,4 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (41,2 %), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (3,8 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,7 %), qora va rangli metallar (0,1 %), mashina va uskynalar (0,1 %), shuningdek xizmatlar eksporti (1,6 %) va boshqalar (52,5 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi(mln.AQSh dollar)



- Paxta hom ashyosi ● Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- Energiya manbalari va neft mahsulotlari ● Qora va rangli metallar
- Mashina va asbob-uskunalar ● Xizmatlar ● Boshqalar

- Paxta hom ashyosi ● Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- Energiya manbalari va neft mahsulotlari ● Qora va rangli metallar
- Mashina va asbob-uskunalar ● Xizmatlar ● Boshqalar

Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmunga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmunga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmunga nisbatan, %
Eksport	531,4	116,3	100	298,3	124,1	100	233,1	107,7	100
Paxta tolasi	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1	5,2	0,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	219,2	155,1	41,2	193,7	143,4	64,9	25,5	404,4	11,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	3,6	139,7	0,7	3,5	151,4	1,2	0,1	23,0	0,0
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	20,0	82,2	3,8	10,3	85,1	3,4	9,7	79,3	4,2
Qora va rangli metallar	0,5	14p	0,1	0,5	14p	0,2	0,0	0,0	0,0
Mashina va asbob - uskunalar	0,6	99,3	0,1	0,5	83,5	0,2	0,1	4,3p	0,1
Xizmatlar	8,7	107,3	1,6	5,6	90,8	1,9	3,2	157,9	1,4
Boshqalar	278,6	100,0	52,4	84,2	100,1	28,2	194,4	100	83,4

**Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan, %)**

**yanvar-noyabr
2018 yil**



**yanvar-noyabr
2019 yil**




Shuningdek, tovar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 - yilning yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 16,3 % ga osdi.


Xizmatlar eksporti hajmi 8,7 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,2 % tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 martaga ko'payganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

**2018-2019 yanvar-noyabr oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti
(mln. AQSh dollar)**



Viloyat eksportida asosiy yirik hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-noyabr)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qirg`iziston va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa

umumiyl eksport hajmining 50,4 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**Farg‘ona viloyatining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O‘rnii	
	2018- yil.	2019- yil.	2018-yil.	2019-yil.	2018- yil.	2019-yil.
Rossiya Federtsiyasi	120,5	121,3	26,1	22,8	1	1
Qirg‘iziston	35,7	105,9	7,8	19,9	4	2
XitoyXR	95,2	88,5	22,5	18,3	2	3
Turkiya	27,1	50,0	6,4	10,3	5	4
Qozog‘iston	67,9	44,3	16,0	9,2	3	5
Polsha	16,9	14,4	4,0	3,0	6	6
Tojikiston	5,9	11,1	1,4	2,3	8	7
Misr	2,1	10,2	0,5	2,1	9	8
Bangladesh	15,3	9,3	3,6	1,9	7	9
Ukraina	3,7	6,8	0,9	1,4	13	10
Afg`oniston	4,0	11,2	0,9	2,3	12	11
Vietnam	4,5	4,9	1,1	1,0	11	12
Koreya Respublikasi	4,9	4,5	1,2	0,9	10	13
Belgiya	1,9	2,4	0,5	0,5	15	14
Marokko	1,2	2,5	0,3	0,5	16	15
Belorys	2,7	1,6	0,7	0,3	14	16

**Farg‘ona viloyatining ayrim davlatlar
bilan eksport tarkibi
(yanvar-noyabr)**

(mln. AQSh doll.)

	Rossiya Federatsiyasi		Qirg‘iziston Respublikasi	
	2018- yil.	2019- yil.	2018- yil.	2019- yil.
Jami eksport	120,5	121,3	35,7	105,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	46,5	56,3	25,3	91,0
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar	0,03	0,04	1,5	1,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,0	2,9	4,5	1,7
Qora va rangli metallar	0,0	0,1	0,0	0,0
Mashina va uskunalar	0,5	0,3	0,1	0,0
Xizmatlar	6,0	5,4	0,05	0,1
Boshqalar	67,4	56,2	4,2	11,6

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida jami 223,2 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 193,3 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o‘sish sur’ati 1,4 % o‘sidi). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida 80,4 ming tonnadan ko‘proq sabzavotlar 49,8 mln. AQSh dollariga yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 32,4 ming tonnaga ko‘p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 106,8 ming tonna meva va rezavorlar 105,4 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 29,7 ming tonnaga ko‘pdir.

Shuningdek, 100,9 ming tonna meva va rezavorlar 100,5 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 27,4 ming tonnaga ko‘pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 193,3 mln.AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 martaga ko'paydi).

Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


Davlat nomi	2018- yil yanvar-noyabr			2019- yil yanvar- noyabr		
	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %
Qozog'iston	54,1	60,4	43,7	73,8	40,6	21,0
Rossiya Federatsiyasi	64,1	45,9	33,2	83,9	55,3	28,6
Qirg'iziston	26,4	25,0	18,1	50,3	87,5	45,3
Tojikiston	0,6	0,4	0,3	0,6	0,6	0,3
Ukraina	2,0	1,2	0,9	7,8	3,3	1,7
Xitoy XR	0,2	0,3	0,2	0,3	1,3	0,7

IMPORT


Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 763,2 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 97,0 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (39,5 %), energiya manbalari va neft maxsulotlari (9,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,1 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (10,9 %), qora va rangli metall (9,9 %), import xizmati (1,2 %) hamda boshqalar (20,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollari)

**2018- yil
yanvar-noyabr**



**2019- yil
yanvar-noyabr**



Oziq-ovqat mahsulotlari

Kimyo mahsulotlari va buyumlari

Energiya manbaalari va neft mahsulotlari

Qora va rangli metallar

Mashina va asbob-uskunalar
Xizmatlar
Boshqalar

Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	O'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	O'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	O'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	763,2	98,0	100	311,6	70,8	100	451,6	133,3	100


Oziq-ovqat mahsulotlari	69,5	130,	9,1	55,4	138,5	17,8	14,1	104,8	3,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	82,9	120,7	10,9	19,6	105,0	6,3	63,3	126,6	14,0
Energiya	70,1	27,3	9,2	69,6	27,1	22,4	0,5	114,7	0,1

**manbaalari va
neft
mahsulotlari**

Qora va rangli metallar	75,5	96,0	9,9	41,8	145,3	13,4	33,7	67,7	7,5
Mashina va asbob- uskunalar	301,2	153,2	39,5	9,8	109,4	3,1	291,4	155,3	64,5
Xizmatlar	9,5	160,4	1,2	1,0	539,2	0,3	8,5	148,5	1,9
Boshqalar	154,5	129,9	20,2	114,4	131,0	36,7	40,1	127,0	8,9

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-noyabr oylari davomida eng past o'sish sur'atlari kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovar va xizmatlar 2018 -yilning mos davriga nisbatan 98,0 % ga kamaygan.

**Farg'ona viloyatiga
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**


Davlat nomi	Mln. AQSh dollari.		Ulushi, %		O'rni	
	2018-yil.	2019- yil.	2018-yil.	2019-yil.	2018-yil.	2019-yil.
Xitoy XR	195,4	271,4	25,1	35,6	2	1
Rossiya Federatsiyasi	203,5	138,7	26,1	18,2	1	2
Qozog'iston	175,5	101,9	22,5	13,4	3	3
Turkiya	20,0	37,9	2,6	5,0	7	4
Qirg'iziston	34,6	35,6	4,4	4,7	4	5
Koreya	23,3	24,8	3,0	3,3	8	6
Tojikiston	9,5	21,1	1,2	2,8	11	8
Germaniya	24,2	22,8	3,1	3,0	5	7
Yaponiya	6,0	15,9	0,8	2,1	23	10
Latviya	8,3	14,9	1,1	2,0	10	9
Litva	4,6	9,5	0,6	1,3	15	11
Polsha	1,7	5,9	0,2	0,8	21	12
Ukraina	4,2	4,3	0,5	0,6	18	13
Italiya	5,5	4,3	0,7	0,6	16	14
Turkmaniston	8,8	7,1	1,1	0,9	9	15
Hindiston	12,5	3,1	1,6	0,4	6	16
Eron	2,9	3,8	0,4	0,5	19	17
Tayvan	1,4	2,7	0,2	0,4	22	18
Niderlandiya	3,7	2,1	0,5	0,3	17	19
Belorus	2,5	2,8	0,3	0,4	20	20

Xizmatlar importi tarkibi, (%)

2019- yil yanvar-noyabr


Xizmatlar importi hajmi 9,5 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,2 % ini tashkil etadi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari,moliya, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2018-2019-yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar o'tgan yilning yanvar -noyabr davriga nisbatan 15,8mln. AQSh dollarga kam import qilindi va 763,2 mln.AQSh dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning tovar va xizmatlar hajmi
2019-yil yanvar-noyabr
(mln. AQSh dollari)**



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizga 63 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmi amalga oshirilgan. Shulardan 11 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston, Germaniya va Korea Respublikasi, Latviya, Tojikiston Respublikasi, Litva, Yaponiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 669,1 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 92,2 % ni tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-87-18**